

Samarqand viloyatida madaniyat va san'at muassasalari faoliyati


2024-yil uchun

- I. Faoliyat yuritayotgan muzeylar
- II. Faoliyat yuritayotgan teatrlar
- III. Konsert tashkilotlari
- IV. Madaniyat va istirohat bog'lari
- V. Kutubxona muassasalari
- VI. Madaniyat va san'at muassasalari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

I. Faoliyat yuritayotgan muzeylar

Samarqand viloyatida 2024-yilda faoliyat yuritayotgan muzeylar soni **13 tani** tashkil etgan. Faoliyat yuritayotgan jami **13 ta** muzeylarning **12 ta** filiallari mavjud.

Faoliyat yuritayotgan muzeylar soni (birlikda)



2024-yilda muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni jami **916,9** ming kishini tashkil etdi. Tashrif buyuruvchilar tarkibida umumta'lim maktablari o'quvchilari hamda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalarining ulushi **10,8 %** ni tashkil etgan.

**Muzeylar soni va tashrif buyuruvchilarning
hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024-yil uchun)**

	Muzeylar soni, jami (birlikda)	Tashrif buyuruvchilar soni (ming kishi)
Samarqand viloyati	13	916,9
Samarqand sh.	13	916,9
Kattaqo'g'on sh.	-	-
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	-	-
Bulung'ur	-	-
Jomboy	-	-
Ishtixon	-	-
Kattaqo'rg'on	-	-
Qo'shrobd	-	-
Narpay	-	-
Payariq	-	-
Pastdarg'om	-	-
Paxtachi	-	-
Samarqand	-	-
Nurobod	-	-
Urgut	-	-
Toyloq	-	-


**Muzeylardagi asosiy fond va eksponatlari soni
2024-yil uchun (ming birlikda)**

O'zbekiston Respublikasi muzeylarida turli xildagi buyumlar va eksponatlar saqlanmoqda, 2024-yilda muzeylardagi jami asosiy fond eksponatlari soni 239,6 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 87,7 mingta (63,3 %)ga ortgan.

II. Faoliyat yuritayotgan teatrlar

2024-yilda viloyatimizda jami teatrlar soni **4** tani tashkil etib, ularda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) soni **1 096** taga yetgan. Ushbu spektakllarga **335** ming nafar tomoshabinlar tashrif buyurgan.


Faoliyat yuritayotgan teatrlar soni (birlikda)
(2024-yil uchun)



III. Konsert tashkilotlar va sirk

Viloyatimizda 2024-yilda jami faoliyat ko'rsatayotgan konsert tashkilotlari soni **3** ta bo'lib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1 ta (25 %)**ga oshgan. Konsert tashkilotlar tomonidan namoyish etilgan konsertlar soni **162** tani tashkil etgan. Ushbu konsertlardagi tomoshabinlar soni **505,2** ming nafarga yetgan.

Faoliyat yuritayotgan konsert tashkilotlari
hamda o'tkazilgan konsertlar soni
(birlikda)



IV. Madaniyat va istirohat bog'lari

Samarqand viloyatida 2024-yilda 4 ta madaniyat va istirohat bog'lari mavjud bo'lib, ulardan Samarqand shahrida 3 ta Pastdarg'om tumanida 1 ta qayd etilgan.

Viloyat miqyosida madaniyat va istirohat bog'larining umumiy maydoni 27,7 gektarni tashkil qilib, ushbu bog'larga 2024-yil davomida qatnovlar soni 398,6 ming kishiga yetgan.

Shuningdek, mazkur bog'larda 22 ta attraksionlar mavjud.

Faoliyat yuritayotgan madaniyat va istirohat bog'lari soni

	Madaniyat va istirohat bog'lari soni, jami (birlikda)	Attraksionlar soni (birlikda)	Jami qatnovlar soni (ming kishi)
Samarqand viloyati	4	22	398,6
Samarqand sh.	3	6	360,2
Kattaqo'g'on sh.			
tumanlar:			
Oqdaryo			
Bulung'ur			
Jomboy			
Ishtixon			
Kattaqo'rg'on			
Qo'shrobd			
Narpay			
Payariq			
Pastdarg'om	1	16	38,4
Paxtachi			
Samarqand			
Nurobod			
Urgut			
Toyloq			

VII. Madaniyat va san'at muassasalari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

Madaniyat – inson faoliyati va shu faolliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, san'at, me'morchilik, teatr, kino va turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Madaniy meros bu – xalqning yoki jamoaning moddiy va nomoddiy merosidir, uni saqlab qolish va keyingi avlodlarga yetkazish uchun vasiyat qilingan. Bunga e'tiqodlar, bilimlar, badiiy ifodalar, me'yorlar va qadriyatlar, ijtimoiy amaliyotlar, urf-odatlar, joylar, obektlar va madaniyatning har qanday boshqa ifodalari kiradi.

Madaniy meros obektlari – moddiy va nomoddiy madaniy meros obektlari.

Moddiy madaniy meros obektlari – tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar.

Nomoddiy madaniy meros obektlari – tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar.

Diqqatga sazovor joylar – inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo'lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarixiy markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek, ko'hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar.

konsert tashkiloti - konsert faoliyatini tashkil etish bilan shug'ullanuvchi (filarmopiua, gastrol-konsert, konsert zali) yoki mustaqil jamoani (musiqiy, xor, raqs va boshqalar) tashkil etish bilan shug'ullanadigan madaniyat tashkilotidir;

sirk - bu sirk tomoshalari namoyish etiladigan arepa (manej)ga ega bo'lgan bino bo'lib, vaqti-vaqti bilan o'zgarib turadigan sirk aPistlari jamoasidan iborat bo'lgan ko'ngilochar tashkilot

muzey - muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash, o'rganish hamda ommaga namoyish etish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan doimiy faoliyat yurituvchi notijorat madaniyat muassasasi;

muzey fondi - muzeyda saqlanayotgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari majmui;

kinoteatrlar - bu boshqa maqsadlarda foydalanilmaydigan statsionar kinoqurilmalar bilan jihozlangan maxsus bino;

axborot-kutubxona va axborot-ryeschrs markazlari - takroriy hujjatlar (kitoblar, davriy pashrlar, boshqa hujjatlar, shu jumladan badiiy nashrlar, audiovizual va mashinada o'qiladigan materiallar)ning uyushgan fondiga ega bo'lgan hamda ulami jismoniy va yuridik shaxslarga



vaqtincha foydalanish uchun taqdim etadigan axborot, madaniy-ma'rifiy muassasa AKM va ARM mustaqil muassasa, korxopa yoki tashkilotning tarkibiy bo'linmasi bo'lishi mumkin.

Tayyorlash uchun mas'ul:
*Aholi turmush darajasi va Ijtimoiy
soha statistikasi bo'limi*

Manzil: *Samarkand shahar U. Tursunov
ko'chasi 82 uy*
El. manzil: *info@samstat.uz*
Tel.: *66-235-33-16*

